

Mirzanboev Sharof O'rol o'g'li

Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi

1-umumiy o'rta ta'lif maktabida

matematika fani

o'qituvchisi.

Annotatsiya: *O'z o'rnida matematika fanini o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Darslarning qay darajada tashkillanishi bu o'qituvchining ijodkorlik qobiliyatiga ham bog'liqdir. Matematik o'yinlar, rasmi topishmoqlar kundalik darslarga joziba bag'ishlaydi. Didaktik o'yinlar darsda ishni individuallashtirish, har bir o'quvchining kuchiga mos topshiriq berish, uning qobiliyatlarini maksimal o'stirish imkoniyatini beradi. O'yin orqali o'quvchilar darsdan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, ularni hayotga tadbiq eta olishga tayyorlanadilar.*

Kalit so'zlar: *Innovatsion texnologiya, Xususiy texnologiya, "Klassik justliklar" usuli, "Juft-juft muloqot" usuli, Pazl metodi, "Matematik bozor" o'yini.*

KIRISH

Hozirgi paytda an'anaviy ta'lif bo'yicha katta tajriba to'plangan va an'anaviy ta'lif usulini takomillashtirish sohasida izlanishlar davom etmoqda, lekin uning obyektiv imkoniyatlari cheklangan. Amalga oshirilayotgan ta'lif sohasidagi islohotlar, tez sur'atda rivojlanayotgan fan-texnika talablari ta'lif usuli bilan jamiyatning raqobatbardosh yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga, barkamol aavlodni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tafovudni vujudga keltirdi. Uni ta'limda boshqa yondashuvlarni qo'llash yo'li bilan hal etish lozim.

Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, matematikani yaxshi o'zlashtirgan o'quvchining tahliliy va mantiqiy fikrlash darajasi yuqori bo'ladi. U nafaqat misol va masalalar yechishda, balki hayotdagi turli vaziyatlarda ham tezkorlik bilan qarorqabul qilish, muhokama va muzokara olib borish, ishlarni bosqichma-bosqich bajarishq o'zida shakllantiradi. Shuningdek, matematiklarga xos fikrlash uni kelajakda amalgalashmoqchi bo'lgan ishlar, tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqeahodisalar rivojini bashorat qilish darajasiga olib chiqadi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fanbirinchi sinfdanoq mifik darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'lifini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarini amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya o'z o'rnida

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

qo'llansa qo'yilgan maqsadiga erishiladi. O'qituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab xususiy texnologiyalarni qo'llab ham yuqori natijalarga erishsabo'ladi.

ASOSIY QISM

Xususiy texnologiya bu - ta'lim-tarbiya mazmunining ayrim yo'nalişlarini amalgao usullari va vositalari majmuini o'z ichiga oluvchi innovatsion tizimlarni qamrab oladi. Bunga ayrim fanlarni o'qitish texnologiyalari va o'qituvchining bilan ishslash texnologiyalari kiradi.“Klassik juftliklar” (“Klassik uchliklar”) - bunda ishtirokchilarga ustiga o'zaro klassik yoki barchaga ma'lum bog'liqlikka ega bo'lgan tushunchalar, odamlar familiyalari, ertak va folklor qahramonlarining nomlari yozilgan (bosib chiqarilgan) kichik kartochkalar tarqatiladi.

Masalan:

Klassik juftliklar:

Funksiya - jadval

Parabola - giperbola

Elektron - proton

Kenglik - uzunlik

Bissektrisa - burchakNyuton – olma

Klassik uchliklar:

Quyosh - havo – suv

Minus - plus - modul

Mediana - balandlik - bissektrisa So'zlar tartibsiz ahvolda bir varaq qog'ozga yozilgan, masalan, plus, parabola, uzunlik, burchak, mediana, minus, funksiya, giperbola, jadval va hokazo. O'quvchilar shu so'zlar orasida klassik juftlik yoki uchlikni topib, tuzishlari va ana shu bog'liqlikni asoslab berishlari kerak. Mashq ham individual tartibda, ham kichik guruhlarda o'tkazilishi mumkin.

“Juft-juft muloqot” usuli - Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarga biror topshiriq (yoki alohida-alohida topshiriqlar) berish va ularni birgalikda topshiriqda keltirilgan muammo (masala) yechimini topishga chorlash, yechimlarni eshitish va baholash.

Ba'zi hollarda o'quvchilar bir-birlariga navbatma-navbat savol (masala) bilany ham mumkin. Bunday holda savol javobi (masala yechimi) savol (masala) bergen o'quvchi tomonidan tinglanishi (tekshirilishi) va baholanishi lozim bo'ladi.

Juftlikda ishslash mavzusini tanlayotganda alohida ehtiyyot bo'lish zarur. Bu mavzu ko'pchilik tomonidan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim, aks holda juftlarda ish ketmasligi mumkin.

Topshiriqlardan namunalar:

a) Har bir o'quvchi 1 minut davomida “O'nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazos bo'lish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o'z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan

keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

b)Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 10, 100, 1000 va hokazos ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

c)Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 vahokazo sonlarga ko‘paytirish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilanalmashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

d)Har bir o‘quvchi 1 minut davomida “O‘nli kasrlarni 0,1, 0,01, 0,001 va hokazo sonlarga bo‘lish” mavzusiga oid 3 ta misolni tuzsin va o‘z partadoshi bilan almashsin. 3 minutdan keyin misollarga javobni qaytarib olsin va javoblarni 1 minut ichida tekshirib, baholasin.

Matematika darslarida Pazl (“Bo‘laklardan butunni tuz”) metodi.Pazl (inglizcha puzzle - topishmoq, boshqotirma) - rasmni uning bo‘laklari yordamida tiklashdan iborat bolalar o‘yining nomi. Shuning uchun bu metod nomini o‘zbek tilida “Bo‘laklardan butunni tuz” deb ham atash mumkin.

O‘tilgan mavzuga oid asosiy jumla, formula, teorema, tenglama, chizma vaboshqa ko‘rinishidagi asosiy ma’lumotlar qog‘ozga yozilib, so‘ng bir nechta bo‘laklarga bo‘linib aralashtirib yuboriladi. O‘quvchilar bu bo‘laklar ichidan faqat bitta ma’lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar. Bu metod o‘quvchilarda ziyoraklik, topqirlik, diqqatni to‘plash, tahlil va sintez qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Uni yakka tartibda ham, sinfni guruhlarga bo‘lib ham o‘tkazish mumkin.

Masalan: Parallel to‘g‘ri chiziqlar, “To‘g‘ri chiziqlarning parallelilik alomatlari” va “Ikki to‘g‘ri chiziqni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesib o‘tganda hosil bo‘ladigan burchaklar haqidagi teoraemalar” mavzulari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishdagi 24 ta varaqchalar (kartochkalar)dan iborat to‘plam taqdim qilinadi. Bu to‘plamda 6 ta teorema keltirilgan bo‘lib, ularning har bir haqida 4 ta varaqchada ma’lumot berilgan bo‘ladi.

1-kartochkada: teoremaning yozma bayoni,2-kartochkada: teoremaga mos chizma,3-kartochkada: teorema sharti va xulosasining qisqacha matematik bayoni,4-kartochkada: teoremaning matematik isboti yozuvi.

Topshiriq: 6 ta o‘quvchiga (yoki guruhgaga) 6 ta teorema beriladi va taqdimqilingan to‘plam ichidan faqat o‘z teoremasi bo‘yicha ma’lumotlarni to‘la yig‘ish vazifasi topshiriladi.

“Matematik bozor” o‘yini - Bu mashg‘ulotni odatda biror katta bo‘lim yoki bobningoxiridagi takrorlash darslarida o‘tkazish mumkin. Biror bob yakunlangandan keyin o‘qituvchi shu bobda o‘rganilgan materiallarga taalluqli misollarni kartochkalarga yozib tayyorlaydi. Har bir kartochkada 2-3 tadan turli qiyinlikdagi misollar yoziladi va

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

har bir misolga qiyinlik darajasiga qarab “narx” belgilanadi(masalan 50so‘m,100so‘m, 200so‘m,...). Kartochkalar soni sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab tuziladi.

O‘quvchilar 4 tadan qilib guruhlarga bo‘linadi, bunda sinfda o‘rtacha 8-10 ta guruh tashkil qilish mumkin. Demak, har bir kartochkadan guruhlar soniga mos ravishda 8-10 tadan tayyorlash kerak bo‘ladi. Kartochkalarning turi esa 4-5 xil bo‘lsa yetarli bo‘ladi (jami 32-40 ta kartochka). Har bir guruh kartochkalardan bittadan oladi, ya’ni har bir guruhda 4 yoki 5 xil kartochka bo‘ladi, “narxlar” kartochkalarda har bir misol(savol) to‘g‘risida ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Biror guruh 1-variantdagi topshiriqlarni birichi bo‘lib bajarsa, o‘qituvchiga ko‘rsatadi va o‘qituvchi yechimni tekshirib shu guruh ishlagan pulni doskada tayyorlab qo‘yilgan jadvalga yozib qo‘yadi. Shu 1-variantni keyingi bo‘lib ishlagan guruhga har bir topshiriqdan 25 so‘mdan chiqarib tashlanadi. Shu tariqa guruhlar har bir variantdagi topshiriqlardan iloji boricha ko‘proq va tezroq yechishga va ko‘proq pul to‘plashga harakat qiladilar. Variantlardagi topshiriqlar xilma-xil va har xil narxli bo‘lishi

mashg‘ulotlarni qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Ma’lum vaqtidan so‘ng (masalan 30 minutdan keyin) “bozor” to‘xtatiladi va o‘qituvchi guruhlар to‘plagan pullarni jadval yordamida hisoblaydi. Guruhlarni nomerlash yoki ularning o‘zları guruhga nom tanlashlari mumkin. Qaysi guruh ko‘proq pul to‘plagan bo‘lsa, shu guruh g‘olib topiladi, qolgan guruhlarga ham o‘rinlar beriladi. O‘qituvchi guruhlarning bajargan ishlarini kuzatib, qaysi guruh biror topshiriqni bajarishga qiyalgan yoki bajara olmagan bo‘lsa, shu topshiriqni bajargan guruhlar yechimini doskada namoyish qilib berishlari mumkin. Biror topshiriqni har bir guruh bajara olmagan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi shu topshiriqni yechish yo‘llarini ko‘rsatib berishi mumkin va shukabi misollar ustida ishlash zarurligini bilib olishi mumkin.

So‘ngra o‘qituvchi guruhlarning to‘plagan pullariga qarab o‘quvchilarni baholaydi. Besh balli tizimda eng ko‘p pul to‘plagan guruh o‘quvchilariga 5 ball, keyingi 2 ta guruhga 4 balldan, keyingi 3ta guruhga 3 balldan va hokazo, qo‘yish mumkin. Bu usullardan foydalanish doiralari: Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda.

Afzalliklari - ushbu mashq o‘quvchilarga mактабда o‘рганилаган fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi, o‘quvchilar birmuncha dastlabki ishni bajarishga ulgurgan mavzular o‘rtasidagi aloqani o‘rganish uchun juda qulay imkon yaratadi.

Zamonaviy o‘qituvchining muammolardan biri - muammolarni aniqlash va aniq misollar bilan talabalarga tushuntirish. Bu sifat ta’lim tizimini barpo etishning juda muhim shartidir. Chunki ilm murakkabligi amaliy muammolarni hal qilish uchun qo‘llash samaradorligi bilan bevosita bog‘liq.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kun o‘quvchisini bugungi zamonning talablari asosida o‘qitish lozim. Zero, yangi texnologiyalar zamonida dunyoga

kelayotgan o‘g‘il-qizlar o‘zining bir qator umumiy sifatlari bilan ajralib turadi. Turmush tarzimiz,qiziqish va xohish-istiklalimiz global makonda qariyb o‘xshashtus olayotgan bir vaqtda kechagi o‘qitish usullari bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Zamon bilan hamqadam rivojlanib borgandagina yuksak intellektual avlodni tarbiyalash imkoniga ega bo‘lamiz. Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim jarayoniga texnologik yondashish mumkin. Hamda bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi- talabani mustaqil fikrplashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadidagi ilmiy natijalarini o‘rganish va nazariy ma’lumotlarni tayyorlash, o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda yoshlarni olimpiadalarga tayyorlash mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, mashg‘ulotlar davomida matematikaning amaliyotga tadbiqlariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar berilishi, ularda fanga bo‘lgan qiziqishni ortishi va dunyoqarashlarini kengayishiga hamda ilmiy ishlar chop qilishlariga sabab bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Умарова У.У. “Муносабатлар. Бинар муносабатлар” мавзуси бўйича маъруза ва амалий машғулотлари учун “Ажурли арра” ва “Домино” методлар //Scientific progress, 2:6 (2021), p. 982-988.
2. Умарова У.У. Мулоҳазалар устида мантиқий амаллар мавзусини ўқитишида «Кичик гурухларда ишлаш» методи // Scientific progress, 2:6 (2021), p.803-809.
3. Умарова У.У. “Формулалар ва уларнинг нормал шакллари” мавзусини ўқитишида йийнили методлар (pp. 810-817).
4. Умарова У.У. “Мулоҳазалар алгебраси асосий teng кучли формулалари” мавзусини ўқитишида “Ақлий хужум” ва “Case Study” методлари // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 818-824.
5. Умарова У.У. Мулоҳазалар алгебраси бўлимими тақорорлашда график органайзер методлари // Scientific progress, 2:6 (2021), p. 825-831